



2. I.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.–Toshkent.: O‘zbekiston, 1998.– B.667. (689).
3. Zokirova K.O, To‘xtamatova D.O‘, Mirzaboyeva S.A. O‘zbekistoda sog‘liqni saqlash va hamshiralik ishi ta’limi tizimidagi islohotlar. Hamshiralik ishi faoliyatini olib borish joylari // Hamshiralik ishi asoslari o‘quv qo‘llanmasi.– T, 2001.– B.24.
4. O‘z MA, M-37-fond, 1-ro‘yxat, 8124-ish, 13-varaq.
5. O‘z ITTH MA, 1-fond, 7-ro‘yxat, 3725-ish, 130-varaq.
6. Soatova I. Shoshilinch yordam xizmatida yangi imkoniyatlar // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2012 yil 2 noyabr.
7. Shukurzoda M. AQSh-O‘zbekiston hamkorligi raqamlarda (1992-2016).- Toshkent, 2015. -B.229.
8. G‘afforov Sh. Virusli gepatit, unga qarshi kurashishda mamlakatimiz tibbiyotida erishilayotgan natijalar // Yangi O‘zbekiston, 2022 yil 5 fevral. 26-son, (548) –B.5.
9. Soatova I. Tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlik // O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, 2021 yil 26 mart.
10. Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (RSHTYOIM) Surxondaryo viloyati filiali nevroptologi Olimjon Husanov bilan muallifning shaxsiy muloqotidan (Termiz shahri, 2022 yil 18 fevral).

BUXORO MUZEYINING “ZARGARLIK TARIXI” KO‘RGAZMASI

<https://zenodo.org/doi/10.5281/zenodo.11611587>

Sherali Jo‘rayev G‘ulom o‘g‘li
Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qıtuvchisi
Buxoro davlat pedagogika instituti
Sherali_Gulyamovich@mail.ru

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi San‘at va etnografiya ilmiy bo‘limida tashkil qilingan “Buxoro zargarlik tarixi” ekspozitsiyasining tashkil topishi va uning ekspozitsiyalari haqida umumiy ma‘lumot beriladi. Ekspozitsiya 2019-yilda yangidan, to‘liq shaklda reekspozitsiya asosida qayta tashkil qilingan bo‘lib, muzey zahiraxonasida mavjud bo‘lgan noyob artefaktlar ilk marotaba tomoshabinlar e‘tiboriga taqdim qilindi. Buxoro vohasining qadimdan rivojlangan hunarmandchilik sohalaridan bo‘lgan zargarlik aholi orasida juda qadrli sanalgan. San‘at va etnografiya bo‘limini bezashda Buxoroning qadimgi uy bezaklari namunalariidan foydalanilgan va ekspozitsiyada namoyish etilayotgan ekspozitsiyalarni namoyish qilishda yordam beradi. Ekspozitsiyada Buxoro maktabidan tashqari, O‘rta Osiyoning turli millatiga mansub aholining taqinchoqlari haqida ham ma‘lumot beriladi. Ekspozitsiyalarning umumiy va farqli jihatlari bayonida qiyoslash metodidan foydalaniladi. Muzey ekspozitsiyalari - bezak vositalarining tayyorlanish uslublari bayon qilinadi. Taqinchoqlarning turlari, ularni tayyorlash ishida foydalanilgan usullar, ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni va bezak*



vositalarining ahamiyati yoritib beriladi. Bilakuzuk, kamar, sirg'a, uzuk va boshqa bezak vositalariga keng e'tibor beriladi. Shuningdek, zargarlik buyumlari namoyishga qo'yilgan ekspozitsiyalar, ularda qanday eksponatlar mavjudligi ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *Buxoro muzeyi, zargarlik, bozuband, noycha tillo, sirg'a, eksponat.*

ВЫСТАВКА «ИСТОРИЯ ЮВЕЛИРНОГО ИСКУССТВА» БУХАРСКОГО МУЗЕЯ

Шерали Джураев Гулям угли
Преподаватель кафедры «Общественные науки»
Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: *В данной статье представлен обзор истории создания экспозиции «История ювелирных изделий Бухары» и ее экспонатов, организованной в научном отделе искусства и этнографии Бухарского государственного музея-заповедника. В 2019 году экспозиция была реорганизована на основе новой, полномасштабной реэкспозиции, впервые вниманию зрителей были представлены уникальные артефакты, находящиеся в фондах музея. Ювелирные изделия из областей ремесел Бухарского оазиса, которые развивались с незапамятных времен, считались среди населения очень ценными. В оформлении отдела искусства и этнографии использованы образцы древнего домашнего убранства Бухары, которые помогают отобразить экспонаты, представленные в экспозиции. Помимо бухарской школы, в экспозиции также представлена информация об украшениях жителей разных национальностей Центральной Азии. При описании общих и различных аспектов экспонатов используется метод сравнения. Описаны методы изготовления ювелирных изделий из музейных экспонатов. Освещаются виды украшений, методы, используемые при их изготовлении, их роль в жизни общества и важность драгоценных предметов. Большое внимание уделяется браслетам, поясам, серьгам, кольцам и другим предметам ювелирного изделия. Также анализируются экспозиции, в которых представлены ювелирные изделия, экспонаты которых они содержат.*

Ключевые слова: *Бухара, музей, ювелирные изделия, бозубанд - амулет, нойча тилло - накосник, серьги, экспонат*

THE EXHIBITION "THE HISTORY OF JEWELRY ART" OF THE BUKHARA MUSEUM

Sherali Juraev Gulom ugli
Lecturer of the Department of "Social Sciences"
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: *This article provides an overview of the history of the creation of the exposition "The History of Jewelry of Bukhara" and its exhibits, organized in the scientific department of Art and Ethnography of the Bukhara State Museum-Reserve. In 2019, the exposition was reorganized on the basis of a new, full-scale re-exposition, for the first time, unique artifacts in the museum's collections were presented to the audience. Jewelry from the handicraft areas of the Bukhara oasis, which have been developing since time immemorial, were considered very valuable among the population. The design of the Department of Art and Ethnography uses samples of ancient home decoration of Bukhara, which help to display the exhibits presented in the exposition. In addition to the Bukhara school, the exhibition also presents information about the jewelry of residents of different nationalities of Central Asia. A comparison method is used to describe the*



general and various aspects of the exhibits. The methods of making jewelry from museum exhibits are described. The types of jewelry, the methods used in their manufacture, their role in the life of society and the importance of precious objects are highlighted. Much attention is paid to bracelets, belts, earrings, rings and other pieces of jewelry. The expositions in which jewelry is presented are also analyzed, which exhibits they contain.

Keywords: Bukhara Museum, jewellery, bosband - amulet, noycha tillo, earrings, exhibit

KIRISH

Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi o‘zining boy kolleksiyasi bilan yurtimiz muzeylari ichida avvalgi o‘rinlarni egallaydi. Kolleksiyalar yillar davomida shakllangan bo‘lib, ularning asosini 100 yil ichida to‘plangan osori-atiqalar, nodir va noyob buyumlar tashkil qiladi. Shunday kolleksiyalarning biri Qimmatbaho buyumlar nomi bilan atalib, muzeyning asosiy zahiraxonasida saqlanadi. Bir necha yillar davomida muzeyda mazkur kolleksiya namunalaridan iborat bo‘lgan ko‘rgazmalar tashkil qilingan. Mazkur buyumlarning muzeyga kelib qolish tarixi ham juda qiziqarli sanaladi. [5;39] ular asosan ikki: arxeologik va etnografik qismdan iborat. [9;111] Qimmatbaho buyumlar kolleksiyasi orasida arxeologik yodgorliklar natijasida topilgan buyumlar, [12;25] fond-xarid komissiyasi tomonidan aholidan xarid qilingan taqinchoqlar, ilmiy-yig‘uv ishlari natijasida muzey xodimlari tomonidan to‘plangan ashyolar va boshqalar mavjud.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqillik yillarida Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasining ekspozitsiya zallari qaytadan qurildi. Yangi davr bilan hamohanglikda tarixning ochilmagan sahifalarini jumladan xalqimizning san‘ati va madaniyatini namoyish etish imkoniyati paydo bo‘ldi, Hunarmandchilikning noyob turlaridan sanalgan zargarlik bilan bog‘liq muzey eksponatlari ilmiy xodimlar tomonidan o‘rganildi. Ularning aksariyat ilmiy tadqiqot natijalari nafaqat mahalliy matbuotda, balki xalqaro konferensiya va jurnallarda ham nashr etilgan. Muzey to‘plamidagi maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, undagi ma‘lumotlar ilk manbalar asosida yozilganligi bilan farq qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. To‘plamdan o‘rin olgan maqolalar.
2. Muzey xodimlarining tadqiqotlari
3. Kitob va konferensiya materiallari

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro tasviriy san‘at muzeyi filialida dastlabki zargarlik ko‘rgazmasi 1994 yilda tashkil qilingan. [2;113] Ekspozitsiyani yaratuvchilar Raisa Konstantinovna



Tipaeva hamda I.Lukyaneslardir. Mazkur ekspozitsiya keyinchalik “Oltin xazina (Zolotaya kladovaya) nomi bilan atalgan. Dastlabki ko‘rgazmadan mil. avv. II-I asrlarga tegishli zargarlik buyumlari, o‘rta asrlarga xos tangalar, XIX-XX asrlarga oid taqinchoqlar va zeb-ziynat buyumlari o‘rin egallagan: sirg‘a, bo‘yin tumorlar, bilaguzuk, ko‘krak bezaklari, sochpuklar, noycha tillo, kamarlar va boshqalar. Bunday buyumlar tarkiban xilma xil bo‘lib, asosan kumush, aqiq, rangli shisha va toshlar, sadaf, mis va boshqa mahsulotlardan tayyorlangan bo‘lib, texnikasi esa zarhallash, emal qoplash, toblash, nozik naqsh bilan ishlov berish (filigran), bolg‘alash, qoliplash singari uslublarda bajarilgan.

2019 yilda Ark viloyat o‘lkashunoslik muzeyi San‘at va etnografiya ilmiy bo‘limi tarkibida “Buxoro zargarligi va mis o‘ymakorligi” ko‘rgazmasi o‘z ish faoliyatini boshladi. Bu ko‘rgazma avvalgisidan keng ko‘rinishga egaligi va ekspozitlarga boyligi bilan ajralib turadi. Mazkur ekspozitsiya Ark qal‘asining Qushbegi hovlisi binolari tarkibiga kiruvchi Elchixonona binolari xonalarida tashkil qilingan. Shuningdek, turli xildagi bezak vositalari Tarix ilmiy bo‘limida ham namoyish etiladi. [6;73]

San‘at va etnografiya ilmiy bo‘limi muzeyning dastlabki bo‘limlaridan sanalib, 100 yil davomida uning nomi bir necha marotaba o‘zgargan. [4;68] “Buxoro zargarligi tarixi” ekspozitsiyasi esa bu san‘at turini ochib berishga alohida xissa qo‘shadi. Mazkur ko‘rgazma 2 qismdan iborat bo‘lib, asosiy ekspozitlar ichki xonada namoyish etiladi. Dastlabki xonada Buxorolik boy va zodagon xonadoni vakillarining uy intereri tasvirlangan. Ekspozitsiyaning tomoshabinlarga yanada tushunarli va qiziqarli bo‘lishi uchun muzey ilmiy xodimlari tomonidan konsepsiya ishlab chiqilgan. Xonaning to‘rida maxsus vitrina buyurtma qilingan bo‘lib, unda Buxoro qadimiy uylarining ichki qismini bezagan tokchabandi uy bezagini uchratish mumkin. Tokchabandi uy bezagi Buxoro uchun an‘anaviy bezak sanalib, unda asosan ganch o‘ymakorligidan keng foydalanilgan. Bundan tashqari tabiiy bo‘yoqlar bilan ular bir necha ranglarga bo‘yalgan va xonaning chiroyini yanada ochishga xizmat qilgan. Buxoro xonadonlarida aksariyat hollarda mehmonxonalar, aniqrog‘i ularning to‘ri (peshkasi) xuddi shunday bezatilgan. [3;56] Bunday bezakli qismdan bir vaqtning o‘zida kitob javoni va xo‘jalik buyumlari (kosa, tovoq, choynak-piyola va boshqa servis buyumlari) saqlanadigan joy sifatida foydalanilgan. Uy bezaklari mehrobsimon ko‘rinishda ishlangan va har birining hajmi bir-biridan farq qilgan hamda mazkur uslublar saqlanadigan buyumlarning hajmidan kelib chiqqan.

Ekspozitsiyaning ushbu xonasidan muzey-qo‘riqxonona fondlarida saqlanayotgan noyob va qimmatbaho buyumlar o‘rin olgan bo‘lib, ular turli materiallardan tayyorlangan. Ayollarning taqinchoqlari maxsus tayyorlangan manikenlarda kiyim-boshlar bilan birgalikda namoyishga qo‘yilgan bo‘lib, bunday uslub taqinchoqlarni yanada yorqin ifodalashga xizmat qiladi. Tokchabandi



uslubidagi xonaning kandakorlik uslubida tayyorlangan buyumlari sirasiga oftoba, dastsho‘y, shirinlik qutichasi, la‘li va boshqa ashyolarni kiritish mumkin. Mazkur buyumlar asosan Buxoro maktabiga xos bo‘lib, turli xil bezak uslublariga egadir.

Navbatdagi vitrinalarda ayollarning soch bezaklari – to‘f va jamalaklar, undan keyingisida esa noycha tillo namoyishga qo‘yilgan. Noycha tillo jamalaklardan asosan haqiqiy soch tolalari ishlatilganligi bilan farq qilgan hamda bezaklari ko‘p, hajmi esa kichkina bo‘lgan. Ularning tarkibida silindrsimon bosma quvurchalar, kumush, rangli toshlar, zar iplar, asl marjon, feruza, smalta, haqiq (serdolik) singari qimmatbaho toshlar mavjud.

Eshikdan o‘ng tomondagi vitrinalarda ayollarning tumorlari, osma bezaklari, taqinchoqlari namoyishga qo‘yilgan bo‘lsa, chap tomonda Ozarbayjon hunarmandlari tomonidan tayyorlangan ayollar kamari bo‘lib, kumush, rus tangalari, metall, charm, rangli shisha, mis plastinkadan foydalanilgan. So‘nggi vitrinada Buxorolik zargarlar tomonidan tayyorlangan bilaguzuklar namoyish qilinmoqda. Ular asosan kumush, emal, asl marjon, smalta, donador naqsh, zarhallash, shabaka, o‘ymakori naqshdan foydalanib ishlangan. [14;126] Bunday zargarlik taqinchoqlarini tayyorlashda turli texnikalardan foydalanilgan. Masalan, zarhallash, emal qoplash, bosma (shtampovka), o‘ymakori naqsh (gravirovka), epigrafik yozuv bilan bezatish, nozik naqsh (filigrannaya rabota), o‘ymakorlik kabi usullardan foydalanilgan. [10;43] Muzeida namoyish qilinayotgan eksponatlarning aksariyatida bezak sifatida tangalarni uchratish mumkin. Umumiy hisobda muzey fondida 30 dan ortiq shunday shakldagi bezak vositalari saqlanadi. [1;33] Bunday shaklda zargarlik buyumlarini tayyorlash qadim tarixga borib taqaladi.

Ekspozitsiyaning ikkinchi qismi muzeyning navbatdagi xonasida davom ettiriladi. Bu yerda zargarlik buyumlari tayyorlashda ishlatiladigan turli xil shakldagi qoliplardan tortib, bolalar bilakuzuklarigacha uchratish mumkin. Dastlabki ikki vitrinada turkmanlarning taqinchoqlari, jumladan sunsila deb ataluvchi ko‘krakka taqiladigan qadama bezaklar, qoziq tumor, bozband va boshqalar. XIX asrga taalluqli bo‘lgan ushbu buyumlarda kumush, qadama, o‘ymakori naqsh, zarhallash, haqiq, rangli shishadan keng foydalanilgan.

3-vitrinada ayollarning bosh kiyimi ustidan taqadigan tillaqosh bezagi, bibishak sirg‘a, arobak – burun xalqasi, zebigardon, Katmola – tumor singari buyumlarni uchratish mumkin. Bular orasida arobak xalqasi nodir buyumligi bilan farqlanadi. [13;17] Bibshak xalqalar esa quloqning yon atoriga taqilgan bo‘lsa, Zebigardon, zebisina – ziynat buyumi, ayollarning bo‘yinga taqilib ko‘krakka tushib turadigan taqinchog‘i 3 shakldor yirik turunj va unga ikki tomonidan simmetrik birlashgan 6 huqqachalardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro halqa, sadaf, marjonlardan tuzilgan zanjirlar bilan bog‘langan.



Xona to'ridagi ikki vitrinada fond kolleksiyasidan olingan qo'ltiqtumor, bozband, nozigardon singari buyumlar tomoshabinlar e'tiboriga havola qilinmoqda. Bozband yoki bozubandlar – kumush materialdan tayyorlangan silindrsimon ko'rinishdagi g'iloqlar sanaladi. Ularning fanda 3 xil turi ma'lum. [8;72] XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro bo'ylab bunday shakldagi buyumlar keng tarqalgan. Bozubandlar Qur'on oyatlarini solib qo'yish uchun mo'ljallangan ayollar bezagi sanaladi.

“Buxoro zargarligi tarixi” ekspozitsiyasidan o'rin olgan buyumlar orasida erkaklar kamarlari ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu ko'rgazmadan tashqari ular Xalq amaliy san'at muzeyida, Tarix ilmiy bo'limida hamda “Saroy harbiy va ot anjomlari” ko'rgazmasida namoyish etiladi. Erkaklar kamarlari XIX-XX asrlar bilan chegaralandi. Ularni tayyorlashda ustalar bir necha uslub va materiallardan foydalanishgan. [11;57] Ushbu buyumlar nozik naqsh (*filigran*), zarhallash, donador naqsh, metall, baxmal, kumush, zardo'zlik singari usul va turli toshlardan foydalanib ishlangan. Ulardan biri qizil duxoba material fonida tayyorlangan. Unga qo'shimcha sifatida tirdon va xaltachalar ilova qilingan. Buxoroda qimmatbaho toshlardan kamar taqish haqida Narshaxiy ham o'zining “Buxoro tarixi” asarida ma'lumot berib o'tadi. [7;17]

O'zbekiston madaniyatini dunyoga tanitish maqsadida amalga oshirilgan eng katta loyihalardan biri – yurtimiz muzeylaridagi eksponatlarning Fransiya poytaxti Parij shahrida namoyish etilishi bo'ldi. 2022 yil 23 noyabrda o'z faoliyatini Arab dunyosi institutida “Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari” nomli ko'rgazmada 300 dan ziyod eksponat namoyish qilingan bo'lsa, shuning 100 ga yaqini Buxoro muzey eksponatlaridir. Amirlik davriga tegishli buyumlar bilan birgalikda zargarlik san'atining eng noyob namunalari ham Parijda namoyish etildi. Yevropaning o'zida xalqaro hamkorlikning davom etishi esa yurtimiz tarixi, madaniyati va san'atiga bo'lgan qiziqishini oshirishi shubhasiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur ekspozitsiya Buxoro zargarligining eng noyob namunalarini xorijiy va mahalliy sayyohlar e'tiboriga taqdim qilishi bilan alohida ajralib turadi. Zargarlikning naqadar bejirim va ko'p mehnat talab qiladigan, tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladigan hunar turi ekanligini anglashda yordam beradi. Buxoro muzey qo'riqxonasining 100 yillik yubileyiga atab mazkur ko'rgazmada ham bir qancha eksponatlar fondida mavjud bo'lgan boshqa eksponatlarga almashtirilib, boyitilgan ko'rgazma tashkil qilinmoqda.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Авезова Ш.Р., Арсланова Ф.Ш. Ювелирные украшения, украшенные монетами из коллекции Бухарского государственного музея-заповедника. // Из истории культурного наследия Бухары. №9. -Бухара, 2004. -С. 31-38
2. Алмеева Д. Р. Экспозиция ювелирного искусства Бухары. // Из истории культурного наследия Бухары. №4. -Бухара, 1995. -С. 112-125
3. Buranov B. Vuxoro shahnishinlari /Moziydan sado, 2003. № 3-4. -В. 56
4. Джураев Ш. Из истории Бухарского государственного музея-заповедника. Создание музеев и выставок. // Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах - важнейшие факторы стабильного развития стран Евразии. Омск, 21–24.09.2021., С. 67-73.
5. Джураев Ш. Сбор ювелирных изделий и создание выставки в Бухарском музее. // “Бухоро тарихи масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция. Бухоро, 26.06.2021., Б. 39-44.
6. Джураев Ш. Из истории Бухарского государственного музея-заповедника. Создание музеев и выставок. // Культура и взаимодействие народов в музейных, научных и образовательных процессах – важнейшие факторы стабильного развития стран Евразии. Омск, 21–24.09.2021., -С. 67-73.
7. Наршахий. Бухоро тарихи. –Тошкент, 1966. Б. 17-18.
8. Ниязова М.И. О бозубандах. // Из истории культурного наследия Бухары. №6. -Бухара, 1998. -С. 72-75.
9. Ниязова М.И. Обзор ювелирной коллекции Бухарского государственного музея-заповедника. // Из истории культурного наследия Бухары. №7. -Бухара, 2001. -С. 111-117
10. Ниязова М.И. Организация ремесла и социально-экономическое положение ремесленников-ювелиров позднесредневековой Бухары классический пример формы жизни ювелиров ранних периодов. // Из истории культурного наследия Бухары. №10. -Бухара, 2006. -С. 37-46
11. Ниязова М.И. Предметы мужских украшений Бухары XIX – нач. XX вв. // Из истории культурного наследия Бухары. №11. -Бухара, 2008. -С. 54-60.
12. Ниязова М.И. Предметы украшения из Талли Мурда Портау. Из истории культурного наследия Бухары. №9. -Бухара, 2004. -С. 25-31.
13. Sultonova N. Arobak – burun xalqasi. Tadqiqot.uz. 2020, №22., В. 16-18
14. Фахретдинова Д.А. Ювелирное искусство Узбекистана. – Ташкент: Гафур Гулям, 1988. –с.204